

JISMONIY SHAXSLARNING O‘ZINI O‘ZI BAND QILISH FAOLIYATLARIDAN OLINGAN DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o‘g‘li

Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti o‘qituvchi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: soliq, tadbirkor, yakka tartibdagi tadbirkor, tadbirkorlik subekti, o‘zini o‘zi band qilish, jismoniy shaxs, bandlik.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarni faoliyat turlarini optimallashtirib yakka tartibdagi tadbirkorlik subektlarini soliqdan qochishga olib kelayotgan yo‘llarni yoqotishga va o‘zini o‘zi band qilishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish orqali tadbirkorlik subektlari soniga ta’siri raqamlar bilan tahlil qilingan, shuningdek tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

1. Kirish.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligini ta’minlash va iqtisodiy o‘zini o‘zi band qilishning omili sifatida aholining ish bilan qamrovi va tadbirkorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Jahon mamlakatlari qatorida yurtimizda ham iqtisodning barqaror rivojlanishi va aholining bandlik darajasini oshirish yo‘lida soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali aholida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda bugungi kunda olib borilayotgan keng islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning va xizmatlarning rivojlanishib borishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o‘zini o‘zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta’sirchan chora tadbirlar olib borilmoqda. O‘z o‘rnida, aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bandligini ta’minlashga, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator me’yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 8-iyunda PQ-4742 son “Tadbirkorlik faoliyatini va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida aholiga juda katta yengilliklar berildi. Ma’lumot uchun ushbu qaror bilan, O‘zbekiston respublikasi soliq kodeksiga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilab qo‘yildi va 2020 yil 1 iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar turlari ro‘yxati

ko'rsatildi.

2. Tadqiqot metodoliyasi.

Maqolada mamlakatda aholining bandligi sohasida olib borilayotgan jismoniy shaxslarning o'zini o'zi band qilish borasidagi ishlarni takomillashtirishga qaratilgan jarayonlarni qiyosiy rivojlantirishga oid turli xil xalqaro yondashuvlarni umumlashtigan holda o'rganildi, hamda xulosalash asosida amaliyotda yaxlit qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

3. Tahlil va natijalar.

Avvalo mamlakatimizda bugungi kunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqsak. O'zini o'zi band qilgan shaxslar deganda mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar tushuniladi. Mehnatga layoqatli yoshdagi shaxs o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganidan

keyin o'zini o'zi band qilgan shaxs maqomini oladi. O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganlik faktini tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) berilgan holda, maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabar qilish tartibida amalga


oshiriladi. Soliq organlarida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish

bepul va masofadan turib amalga oshiriladi. Xohlovchilar buni "Soliq" mobil ilovasidan foydalangan holda yoki my.soliq.uz saytida jismoniy shaxslarning shaxsiy kabineti orqali amalga oshirishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tish uchun o'zini o'zi band qilmoqchi bo'lgan jismoniy shaxs so'rovnoma to'ldirishi lozim bo'ladi. Bunda so'rovnoma o'zini o'zi band qilgan shaxs tomonidan maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali elektron shaklda mustaqil ravishda, davlat soliq xizmati organiga kelganda esa soliq organi xodimi tomonidan to'ldiriladi.

Darxaqiqat aholining bandlik darajasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar ya'ni o'zini o'zi band qilish dasturi orqali olib borilgan ishlar Respublikamizda ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotgan aholi qatlami sezilarli darajda ko'payishiga sabab bo'ldi. Jumladan Respublikamizda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning yillar kesimida faoliyat turlari ko'payishini ko'rishimiz mumkin.


¹ Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020 yildagi "Tadbirkorlik faoliyatini va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4742-son



1-rasm.2022 va 2023-yillarda o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning o‘ish dinamikasi²

Buning natijasida jismoniy shaxslarning o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yollanma ishchilarni jalb qila olmasligi hamda ish beruvchiga ega bo‘la olmaslig, kontrakt tuzmasdan, kelishuv to‘g‘risidagi ommaviy taklifni (oferta) qabul qilish yoki elektron yozishmalar almashish yoxud hisob-kitob fakturalarni (invoys), shu jumladan elektron shaklda taqdim qilish yo‘li bilan chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yengilliklar berildi. 2020-yil 1-iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatida Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati bilan bir turdagi faoliyatlar mavjudligi bu maqolaning ahamiyatli tarafi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi hozirda fuqorolarning yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishiga va faol faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning o‘tgan yilga nisbatan soni kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

² Muallif tomonidan Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi



2-rasm.2022 va 2023-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan faol yakka tartibdagi tadbirkorlarning dinamikasi³

Bu esa o'z navbatida soliq organlari va jismoniy shaxslar o'rtasida munozarali vaziyatlar keltirib chiqarmoqda va tadbirkorlik subektlari soliqdan qochish maqsadida o'z faoliyatlarini o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazmoqda. Soliq to'lovchilarda yana bir soliq majburiyati bo'lgan aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan barcha yuridik shaxslar, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar (keyingi o'rinlarda tadbirkorlik subyektlari deb ataladi) tomonidan fiskal modulga ega bo'lgan onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni hamda elektron to'lov tizimlarini qo'llash tartibidan ham qochish maqsadida jismoniy shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmoqda sababi bu nizomda o'zini o'zi band qilgan shaxslar fiskal modulga ega bo'lgan onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni hamda elektron to'lov tizimlarini qo'llash tartibi haqida nizomda ko'rsatilib o'tilmaganligi soliqqa oid munosabatlarda munozarali baxslar keltirib chiqarmoqda⁴. Xalqaro amaliyotda mavjud holatlar taxlil qilinganda, xususan qo'shni mamlakat Qozog'iston Respublikasida o'zini o'zi band qilgan shaxslargaga tijorat binolarida ishlashga ruxsat berilmaydi. Oddiy qilib aytganda, siz faqat uyda ishlashingiz mumkin. Aytaylik, siz bog'ingizdan hosil yig'ib oldingiz. Mahsulotlarni qanday sotish kerak? Eng oson narsa uni do'konga olib borishdir. Ammo o'zini o'zi band qilgan shaxs o'z mahsulotini do'konda sota olmaydi, chunki do'kon tijorat bino hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri bog'ingizda "bozor" o'rnatish va qandaydir tarzda xaridorlarni unga jalb qilish qoladi. Xuddi shu narsa boshqa faoliyat turlariga ham tegishli. Ta'mirlash ustaxonasini ochmoqchimisiz? Iltimos, lekin faqat uyda. Agar siz ustaxona uchun maxsus ijara shartnomasi asosida faoliyat yuritmoqchi bo'lsangiz, unda siz faqat yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida ishlashingiz mumkin⁵. Shuningdek Rossiya Federatsiyasida O'z-o'zini ish bilan ta'minlovchilar uchun ikki turdagi stavkalar mavjud. Sizing holatingizda qaysi biri qo'llanilishi tovar yoki xizmatlaringizni kim sotib olishiga bog'liq:

4% - agar pul jismoniy shaxsdan kelgan bo'lsa;

³ Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

⁴ Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.11.2019 yildagi "onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi 943-son

⁵ <https://www.bcc.kz/about/press-center/bcc-journal/>

6% - agar to'lov yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkordan olingan bo'lsa.

Ushbu stavkalar 2028 yil oxirigacha o'zgarmaydi. Agar biror kishi o'z-o'zini ish bilan ta'minlash maqomini olgan bo'lsa-da, lekin biron sababga ko'ra u ishlamas va daromad olmasa, u soliq to'lashi shart emas va shuni ham inobatga olish kerakki agarda yil davomida kasbiy daromad 2.4 mln rubldan (328,0 mln sum) ohsa belgilangan tartibda siz standart shaxsiy daromad solig'ini to'lashingiz kerak bo'ladi - bu 13% bo'ladi.

4. Xulosa.

Yuqoridagi taxlillardan ko'rinib turibdiki bugungi kunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar instituti jahonning ko'p mamlakatlarida mavjud. Har bir holda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun muayyan mezonlar belgilangan, ularga muvofiq kelganda o'zini o'zi band qilgan shaxsga aylanish va ular uchun belgilangan soddalashtirilgan qoidalar bo'yicha ishlash mumkin. O'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarni soliqqa oid munosabatlar doirasida yuzaga keladigan munozarali baxslarni keltirib chiqarmaslik hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliqdan qochish maqsadida o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishni oldini olish maqsadida o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxs tijorat binosida o'z faoliyatini faqatgina yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan xolda amalga oshirishni, shuningdek o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga, agar ularning yillik daromadi 100 mln so'mdan ohsa, 4 % Stavka bo'yicha (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq kabi) soliq solish tartibini belgilash va o'zini o'zi band qilgan shaxs buxgalter yordamisiz ishlashi uchun maksimal darajada soliq xisobotlarini topshirishni soddalashtirish maqsadga deb xisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020 yildagi "Tadbirkorlik faoliyatini va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4742-son
2. Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.11.2019 yildagi "onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi 943-son
3. Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3856-son
4. Soliq kodeksi
5. <https://www.bcc.kz/about/press-center/bcc-journal/>
6. <https://fincult.info/article/kto-takie-samozanyatye-kak-poluchit-etot-status-i-chto-on-daet/>

⁶ <https://fincult.info/article/kto-takie-samozanyatye-kak-poluchit-etot-status-i-chto-on-daet/>